
BITIRUVCHILARGA DIPLOM, SPORTCHILARGA ESA ESDALIK SOVG'ALARI TOPSHIRILDI

Tumanimizdagi professional ta'lim muassasalarini 2021-2022 o'quv yilida bitirib, boshlang'ich professional ta'lim diplomiga ega bo'layotgan bitiruvchilarga diplom topshirish tadbirlari ko'tarinki kayfiyatda bo'lib o'tmoqda.



Asosiy e'tibor esa bitiruvchilarni o'z yo'nalishlari bo'yicha munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishlari uchun yetarli sharoit yaratib berishga qaratilmoqda.

Bugun bo'lib o'tgan tumandagi 2-son kasb-hunar maktabi bitiruvchilariga diplom topshirish marosimida tuman hokimi Shamsiddin Turdaliyev, Milliy gvardiya Farg'ona viloyati bo'yicha boshqarmasi boshlig'i, polkovnik Shavkat Akbarov, ish beruvchi hamkor tashkilotlar, ota-onalar hamda bitiruvchi o'quvchilar ishtirok etdi.



Tadbirda so'z olgan Sh.Turdaliyev hamda Sh.Akbarovlar bitiruvchilarga kelgusi o'qish va ish faoliyatlarida omad tiladilar va 250 nafar o'quvchilarga, jumladan, 2 nafar o'quvchiga imtiyozli boshlang'ich professional ta'lim diplomlarini tantanali ravishda topshirdilar.

Shuningdek, tadbirda kuni-kecha o'tkazilgan UZBEKISTAN OPEN-2 kikkoksing bo'yicha xalqaro turnirda g'oliblikni qo'lga kiritgan 6 nafar tumanimizdagi yosh sportchilarga tuman hokimligi tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-14 18:04:29